

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Musurmonova Gulsevar Olimjon qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Jahonda kadrlarning, xususan, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali oliy ta'lim sifati va raqobatbardoshligi ta'minlashga erishilmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)" hamda Yevropa Ittifoqining "Evropa oliy ta'lim makoni» (EHEA. 2010) Konsepsiyalari mazmunida «Kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda kompetentlikka asoslangan ta'lim (competence-based learning) modelini joriy etish, ta'limni insonparvarlashtirish asosida kasbiy malakalarni uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish» oliy ta'limning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu jahon mamlakatlari oliy ta'lim makonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning ilg'or tajribalarini ta'limni tashkil etish va boshqarish jarayoniga integratsiyalashni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning fanlar doirasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishlari bilan bir qatorda ularni jahon andozalariga mos ravishda kasbiy kompetensiyalar bilan qurollantirish, kasbiy malakasini oshirish tizimini takomillashtirish zarurati ham paydo bo'lmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda Parlamentga qilgan Murojaatnomasida barcha sohalar kabi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan hamda rejalashtirilayotgan islohotlarning ham ustuvor jihatlari qayd etildi. Xususan, Murojaatnomada maktabgacha ta'lim tizimida boshlangan islohotlarni samarali davom ettirish, umumta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya sifatini yaxshilash, oliy ta'limning akademik ilm-fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini kuchaytirish orqali ta'lim tizimining barcha bosqichlari orasida o'zaro uzviylik, bog'liqlikka erishish, natijada, butun uzluksiz ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor jihatlar o'z ifodasini topgan.

Mamlakatimizda pedagogik ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni jamiyatda o'qituvchilik kasbi mavqeyini mustahkamlash, ilg'or xorijiy tajriba va innovatsiyalarni jalb qilish, ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ta'limning asosiy va yordamchi vositalarini zamonga mos holda takomillashtirish, sohaga xususiy sektorni ko'proq jalb qilish va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish kabi masalalarga yo'naltirilgan. Bunda o'qituvchilik kasbining alohida fazilatlarini, jumladan, ularning yuksak didaktik mahorat va texnikaviy ko'nikmalarni o'zlashtirganligi, pedagogik

kompetensiyalardan voqifligi, umummadaniy fazilatlarga erishgan shaxs sifatida ta'lim va tarbiya jarayoniga kreativ yondashishi kabi xislatlarni o'zida aks ettiruvchi kasbiy kompetentlik muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish, boshqacha aytganda, kasbiy kompetentlikka erishishda maktablarda tashkil etiladigan malakaviy amaliyot muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotimiz predmetidan kelib chiqqan holda kompetentli o'qituvchini tayyorlash masalasini o'rganishning asosiy yo'nalishlarini ochib berish maqsadida bu jarayondagi muammolarning yechimini ko'rsatadigan psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir hisoblanadi. Mavjud xulosalarning turli-tumanligiga qaramay, barcha tadqiqotlar uchun umumiy bo'lgan narsa shundaki, ularda kasbiy kompetensiya darajasi talabalarning pedagogik mahoratini shakllantirish darajasiga bog'liqligi ta'kidlanadi.

Sohaga oid ilmiy adabiyot va izlanishlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, o'qituvchi sohaga doir bilimlarni (psixologik-pedagogik, metodik, ilmiy va mutaxassislik fanlari) o'zlashtirishi, ilmiy, pedagogik va metodik bilimlarni o'zaro bog'lashi, integratsiyalashi, ularni ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltirishi zarur. O'z navbatida, o'quv jarayonining real talabidan kelib chiqib o'qituvchi deyarli doimiy ravishda talabalarga o'z sohalari bo'yicha turli xil ko'nikma va malakalarni o'rgatishi lozim ekan, bu, albatta, talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonini mukammallashtiradi. Shuning uchun mutaxassisning kasbiy

kompetensiyasini shakllantirish masalasini hal qilishda poydevor yaratadigan va kasbiy tayyorgarlikning muvaffaqiyatini belgilaydigan pedagogik fan va amaliyotning asosiy qoidalarini tanlash va ularni ishlab chiqish vazifasi ustuvor masalaga aylanadi. Ushbu tadqiqotda asosiy e'tibor bo'lajak o'qituvchining maktab malakaviy amaliyoti jarayonida kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratiladi. Oliy ta'lim nazariyasi va amaliyotini tahlil qilib, bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetentligining muhim xususiyatlarini, talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash shart-sharoitlarini aniqlash va belgilash uchun asos bo'lgan muhim fikr va yondashuvlarni tadqiq etish maqsad qilingan.

Mamlakatimiz hozirda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" qadam qo'yimoqda, demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurmoqda ekan, bunday sharoitda ta'limning ahamiyati nafaqat iqtisodiyotni, balki butun jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishning eng muhim omili sifatida yanada oshadi. Ta'limning roli kundan-kunga ortib boradi, ta'lim siyosatining asosiy vazifasi –zamonaviy ta'lim sifatiga erishish, uning shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va bo'lg'usi ehtiyojlariga muvofiq bo'lishi hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchilarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mutaxassislar tayyorlash sifatini va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, zamonaviy hayot talablariga javob beradigan pedagogik korpusni tayyorlash va shakllantirish vazifasi mamlakat kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoni hal qilish uchun bugungi pedagogik ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan o'qituvchilar zamonaviy maktab talablariga to'liq javob bera olmayotgani va buni barataraf etish muhim vazifaga aylanmoqda. Pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini: uning tashkil etilishi, tuzilishi, mazmuni, malakaviy amaliyoti va ta'lim jarayonidagi innovatsion jarayonlar bilan o'zaro bog'liqlik tamoyillarini, o'qituvchilar tarkibini ko'paytirish va sifatini yaxshilashni kompleks isloh qilish uchun bir nechta modellarni ishlab chiqish va eksperimental ravishda sinovdan o'tkazish zarur. Zamonaviy maktablarimiz uchun mutlaqo boshqacha pedagogik kadrlar kerak. Qoidaga rioya qilishga odatlangan va har bir qadamda ko'rsatmalar kutib turadigan o'qituvchi bunday maktablarga mos kelmaydi. Zamonaviy maktab o'ziga jonli munosabatni, individual yondashishni talab qiladi.

Kompetentlikka asoslangan ta'lim sharoitida o'qituvchi ta'lim jarayonida an'anaviy ta'limga nisbatan bir oz o'zgarish funksiya va rolni bajaradi Bunday ta'lim shaklida o'qituvchidan:

talabalarining mustaqil faol bilim faoliyatini tashkil etuvchi;

kompetentli maslahatchi va yordamchi;

talabalar harakatini psixologik-pedagogik aspektda baholay oladigan, ularga samarali harakatlari bilan tez yordam berishga va o'zlashtirilgan bilimlarni munozara qilish va qo'llashda uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodir mutaxassis bo'lish talab etiladi.

Ushbu rol an'anaviy ta'limga qaraganda ancha murakkab va o'qituvchidan kasbiy kompetentlikni talab qiladi.

Har qanday ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiyaviy jarayon yoshlarni hayotga, mehnatga va o'z shaxsiyatini rivojlantirishga tayyorlashning bugungi kun talablaridan bir qadam oldinda turishi kerak, bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ushbu talablardan "ikki karra" yuqoriroq bo'lgandagina amalga oshadi. Faqatgina bu holat ertangi kun, kelajakka yo'naltirilgan ta'lim tizimi va pedagogika fanida har qanday ijobiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan kafolatlanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, pedagog kadrlarni tayyorlashda "ikki karra" oldinda yurish talabi bilan bir qatorda real hayotda o'qituvchi maktab hayotidan, ta'lim tizimi esa maktab talablaridan orqada qolsa, u "jamiyat talablaridan ikki baravar orqada qoladi?". Pedagogik ta'limning bu xususiyati hayotning barcha sohalarini takomillashtirishda va eng avvalo, islohotlar jarayonida ta'limni hisobga olish kerakligini ko'rsatadi.

Zamonaviy maktabga o'z kasbiy kompetensiyalariga ega, boshqacha aytganda, kasbiy kompetentli mutaxassis kerakdir. Bu nimani anglatishi haqida quyida batafsil to'xtalamiz.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kompetentlikka asoslangan ta'lim (competence-based education – CBE) o'tgan asrning 70-yillarida Amerikada N. Xomskiy tomonidan til nazariyasi va transformatsion grammatikaga bog'lab taklif qilingan kompetensiya tushunchasi negizida shakllangan. R. Uaytning "Motivatsiya qayta ko'rib chiqildi: kompetentlik konsepsiyasi" ("Motivation reconsidered: the concept

of competence”) (1959) asarida kompetensiya kategoriyasi shaxsiy fazilat ekanligi qayd etiladi hamda u motivatsiya bilan to’ldirilgan.

Shu tarzda kompetensiyaga asoslangan yondashuv dastavval xorijiy tillar ta’limi doirasida qo’llanilgan bo’lsa, asta-sekin barcha fanlarni o’qitishda ustuvor yo’nalishga aylanishi uni yanada chuqurroq tadqiq etishni taqozo etadi.

Muayyan sohada kompetentli bo’lgan kishi o’sha sohaga tegishli bilim va qobiliyatlarga ega bo’ladi, ular ushbu mutaxassisga o’z sohasini oqilona, omilkor baholash va bunda samarali harakat qilish imkoniyatini beradi. Mazkur tushuncha “O’zbek tilining izohli lug’ati”ga (2006) kiritilmagan bo’lsa-da, boshqa tillar leksikografiyasida “biror narsa borasida hukm qilish imkoniyatini beradigan bilimga ega bo’lish”⁸; “xabardorlik, bilimdonlik, qonuniy huquqlilik, qonuniy huquqqa egalik”⁹; “obro’rlik, nufuzga egalik, to’la huquqqa egalik”¹⁰ deb izohlangan.

Ko’pgina lug’atlarda “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari farqlanadi. “Kompetensiya” uchun yagona ta’rif mavjud emasligi sababli u turlicha izohlanadi: “muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat yoki shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi”; “qaysidir idora yoki mansabdor shaxsning qonunlar, ushbu idora ustavi yoki boshqa qonunlar bilan belgilangan vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari to’plami”; “biror narsa haqida hukm chiqarishga imkon beradigan bilimga ega bo’lish, unga egalik qilish”¹³; “biror yaxshi xabardor bo’lgan, biladigan masalalar sohasi”¹⁴; “bir qator qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki o’zi qaror qabul qilishi uchun imkon beradigan muayyan bilim va ko’nikmalarga ega insonning shaxsiy imkoniyatlari, uning malakasi (bilimi, tajribasi)”¹⁵.

Odatda, kompetentlik va kompetensiya atamaları o’zaro muqobil so’zlar deya qaralishi sababli quyida ular o’rtasidagi aniq farqlar borasida batafsil fikr yuritimiz.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, chet tillarini o’qitish metodikasida kompetentlikka asoslangan yondashuv g’oyasi bizga G’arbdan kirib kelgan. Kompetentlikka asoslangan yondashuvda asosiy tushuncha bu kompetensiyadir. Ammo kompetensiya haqida so’z borganda “kompetentlik” tushunchasini ham tilga olish zarur. E.D. Bozovichning qayd etishicha, ilmiy adabiyotlarda bu ikki atama ko’pincha sinonim sifatida ishlatiladi, shunga qaramay, ular bir-biridan farq qiladi: “Kompetensiya - bu bilim sohasi bo’lib, undan inson professional, ehtimol, havaskor sifatida xabardor bo’lishi, uni bilishi mumkin; kompetentlik esa, odatda, ma’lum bir sohada yuqori darajadagi malakani nazarda tutadi va mutaxassisning bu sohadagi fikri ishonchli (e’tiborli) hisoblanadi”¹⁶.

Shuni e’tiborga olish kerakki, rus metodik adabiyotlarida kompetensiya va kompetentlik atamalarining farqlanishi tarjima yoki rus tili so’z yasallishining o’ziga xos xususiyatlari natijasida paydo bo’lmagan. Ingliz tilida ham turli xil suffikslarga ega bo’lgan ikkita atama mavjud:

“competence” va shunga monand atamalarining ma’nolari to’g’risida turli xil qarashlar mavjud. Nemis tilida “kompetenz” atamasigina mavjud, shuning uchun kompetensiya va kompetentlik atamaları o’rtasida farq yo’q. Xorijiy metodik adabiyotlarda ushbu atamalarining o’ziga xosligi yoki farqlanishi to’g’risida yakdil fikr mavjud emas: ba’zi xorijiy tadqiqotchilar ushbu tushunchalarni o’zaro qarama-qarshi qo’yishsa, boshqalari ularni bir-birini to’ldiruvchi deb hisoblashadi. Natijada, ta’riflar bo’yicha aniq biror xulosaga kelish ancha bahsli. “Competency” atamasiga to’xtalsak, kognitiv, funksional va ijtimoiy kompetensiyalar, shuningdek, boshqa sanab o’tilgan kompetensiyalarni o’zlashtirish uchun talab etiladigan metakompetensiyalar mavjud; shu asosda menejmentda ham, ta’limda ham qo’llaniladigan turli xil modellar yaratilgan.

Rus tadqiqotchilari ushbu munozaraga to’xtalib, o’z ta’riflarini berishadi, ular ham muayyan darajalarda bir-biriga ziddir. Misol uchun, I.Ya. Zimnyayaning fikriga ko’ra, “kompetentlik” tushunchasi “kompetensiya” tushunchasidan kengroq mazmunga ega, chunki u o’z ichiga kognitiv-bilim, motivatsion, “o’zaro munosabat” va tartibga soluvchi tarkibiy qismlarni qamrab oladi. Kompetentlik muayyan kompetensiyalar (qismlari) asosida rivojlanadi.

Ushbu fikrga M.D. Ilyazova ham qo’shiladi: “... Biz ... kompetentlik va kompetensiyalarni ma’lum sub’ekt faoliyatining o’zaro bir-biriga “bo’ysunadigan” tarkibiy qismlari deb bilamiz. Biz kompetensiyani potensial faoliyat, tayyorlik va faoliyatning muayyan turiga intilish deb bilamiz. Kompetentlik – bu

insonning ajralmas fazilati – bu faoliyatda muvaffaqiyatli amalga oshiriladigan kompetensiyadir”18.

“Kompetentlik” atamasining ba’zi ta’riflarini ko’rib chiqamiz. E.O. Ivanova kompetentlikni “tegishli kompetensiyalarga ega bo’lish” deb tushunadi19. R.P. Milrudning ta’kidlashicha, “keng ma’noda kompetentlik

bu muayyan faoliyat sohalarida va muayyan turdagi muammolarni hal etishda talablar, belgilangan mezon va standartlarga muvofiqlik, kerakli faol bilimlarga, ishonchli natijalarga erishish va vaziyatni boshqarish qobiliyatiga ega bo’lishlikdir”20. O’z fikrini davom ettirgan R.P. Milrud kompetentlikni kompetensiyalar jamlanmasi, ya’ni muvaffaqiyat bilan samarali faoliyatning kuzatish mumkin bo’lgan namoyish sifatida ifodalash mumkin degan xulosaga keladi. Shu bilan birga, u kompetentlik atamasiga quyidagi ta’rifni beradi: “Kompetentlik – bu ma’lum bir sohada tashqi dunyo bilan samarali o’zaro aloqada bo’lish imkoniyatini yaratadigan va zarur kompetensiyalarga asoslanadigan kompleks shaxsiy resursdir”21. O’quvchi kompetentligining tarkibiy qismlariga R.P. Milrud quyidagilarni kiritadi: “Bilimlar zahirasi, muammolarni hal qilish usullariga egalik va maqsadlarga erishish tajribasi”22. Tadqiqodchi ushbu tarkibiy qismlardan birortasi mavjud bo’lmasa, kompetentlik nuqsonli sanaladi, deb hisoblaydi.

E.I. Ogarev kompetentlikni beshta asosiy tarkibiy qismdan iborat deb hisoblaydi:

bajarilayotgan vazifalar va yechilayotgan muammolarning mohiyatini chuqur anglash;

ma’lum sohada mavjud bo’lgan tajribani yaxshi bilish, uning eng yaxshi yutuqlarini faol o’zlashtirish; muayyan makon va zamonning o’ziga xos aroitlariga mos keladigan faoliyat (harakatlanish) vositalari

va usullarini tanlash qobiliyati;

erishilgan natijalar uchun javobgarlik hissi;

maqsadlarga erishish jarayonida xatolardan saboq chiqarish va ularni tuzatish qobiliyati.

Ushbu terminning yanada to’liqroq, batafsilroq ta’rifiga e’tibor qaratamiz: “Kompetentlik – bu hayotning turli sohalaridagi muammolarni nazariy bilimlar asosida hal qilish qobiliyati bilan ajralib turadigan bilimlilik darajasi va uning asosida ishlab chiqilgan amaliy faoliyat usullaridir. Boshqacha aytganda, kompetentlikni 1) mavzuni chuqur bilish; 2) o’zlashtirilgan mahorat; 3) biror faoliyatni real hayotda bajarish qobiliyati, deb tushunish mumkin.

O’rganilgan manbalardagi ma’lumotlarni umumlashtirish natijasida “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalariga quyidagicha ta’rif berishni taklif qilamiz:

Kompetensiya – bu muayyan (pedagogik) muammoni hal qilish, to’siqlarni yengib o’tish va maqsadlarga erishishni ta’minlaydigan, muvaffaqiyatli harakat qilishning o’ziga xos strategiyasi bo’lib, u ma’lum bir predmet va jarayonlar doirasi bilan bog’liq bo’lgan va ular doirasida professional ijodiy faoliyat uchun talab etiladigan, o’zaro chambarchas bog’liq xususiyatlar majmui (bilim, mahorat, ko’nikma, kasbiy layoqat)dir.

Kompetentlik – shaxsning o’z faoliyat predmeti va shaxsiyatiga monand muayyan kompetensiyalarga egaligini ifodalovchi va o’zlashtirilgan samarali strategiyalar orqali muvaffaqiyatli faoliyatni ta’minlaydigan integral shaxsiy resurslardir.

Kompetentlik kompetensiyalardan iborat bo’lib, muayyan kompetensiyalar orqali belgilanadi va ushbu kompetensiyalarda namoyon bo’ladi.

Har bir shaxs, xususan, mutaxassis qanday kompetensiyaga ega bo’lsa, uning kompetentlik darajasi shunga monand namoyon bo’ladi.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy fikr va xulosalarga tayangan holda biz “kompetentlik”ni “kompetensiya”ning hosilasi, degan fikrga qo’shilamiz. Kompetentlik butun bir tizimni anglatuvchi tushuncha, kompetensiya esa uning tarkibiy qismidir. Malakaviy amaliyot bo’lajak o’qituvchining kompetentligini shakllantiruvchi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi va bunda amaliyotchi-talaba (bo’lajak o’qituvchi) kompetentligi uning o’z pedagogik faoliyatida qo’lly oladigan bilim, metodika va pedagogik mahorati sifatida namoyon bo’ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Adabiyolar

Львов Л.В. Технология формирования учебно-профессиональной компетентности (концепт. – Челябинск: ЧГАУ; ЮУНОУ РАО, 2007. – С. 9-10.

Олешков М.Ю. Современные образовательные техно-логии: методическое **ВОЛЕЙБОЛЧИЛАР**